

“HUR VATANIM MENING- ÖZBEKISTONIM”

*Isroilova Dilsora Maqsud qizi*  
*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani*  
*32-DMTT tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mustaqil Özbekistonimizning 33 yilligiga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** oila, mahalla, Vatan, ona yurt,diyor, lashkarboshi, sarkarda, musofir.

Vatan... Bu so'zni eshitiboq qalbimiz jumbushga keladi, yuragimizda ajib hislar tug'yon uradi.

Vatan- bizning taqdirimiz, baxtimiz, erkimiz, gururimizdir. Uning har bir qarich yeri oltinga teng. Unda osadigan har bir giyoh esa dur-u marjondir .Oila va mahalla esa kichik bir Vatandir.Oila qadri har yerda bilinadi, ayniqsa undan ozgina uzoqlashganda.Kindik qonimiz tomgan gosha har birimiz uchun qadrlidir.

Dunyoda yurtlar kop, zaminlar kop. Ammo, biz uchun eng aziz, yagona diyor bu- Özbekiston. Musofirda yurgan inson uchun oz yurtining tuprogi , havosi, odamlari ayniqsa noz-ne'matlari juda sog'inchlidir.

Vatan- bu insonning tug'ilib osgan yeri,uning godaklik cho'gidanoq mehr qoygan ocho'gi , mahallasi va qishlo'gidir.

“Vatan” -so'zi arab tilida tug'ilib osgan joy, ona yurt ma'nosini anglatadi. Vatanga muhabbat-yuksak insoniy fazilat.Bu borada “Vatanni sevmoq -iymondandir” hikmatini yodga olish kifoya.

Vatanga bolgan muhabbat joy, makon, vaqt tanlamaydi.Vatan muzliklarda, sahrolarda, daryolarda, chol-u biyobonlarda bolishi mumkin.Bu tuygu inson dunyoga kelishi bilan vujudga keladi, inson vafot etishi bilan poyoniga yetadi. Vatanga mehr esa ona suti bilan qalbimizga singadi.

Donishmandlardan biri aytganidek “Vatan bir bo'g'dir, Vatanning sodiq farzandlari bu bo'gni yurak qoni ila su'gormaklari lozim”...

O'zini shu yurt farzandi deb hisoblovchi har bir farzand yurak qoni ila Vatan bo'g'ini yashnatish,uni sha'nini ulug'lash ,kohlarga kotarish uchun xizmat qilmo'gi darkor.

Vatanimiz qanchadan-qancha bosqinchilar tomonidan istilo qilinmadi deysiz?

Lekin, har bir zamonda ham oz Vatanimni sevuvchi, uning uchun jon fido qiluvchi mard, buyuk sarkardalar, lashkarboshilar, yolboshchilar topilgan. Yurti uchun jon fido qilgan sodiq farzandlar nomlari tarix zarvaraqlariga oltin harflar bilan bitilgan.

Vatan - ota yurt, ajdodlaring kōmilgan qabriston, pastakkina tomli uy ekan...Ota-onang, ōzingning izlaring qolgan kōchalar, birinchi bor qorni kōrgan, ōynoqi qorga hayratlanib termulgan joying ekan Vatan.

Vatan-birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan,birinchi muallimingni, birinchi muhabbatingni tanigan makon ekan -Vatan.

Vatan- bu sen yotgan beshiging , beshiging tebranganda ğichirlagan kuyi ekan Vatan.

Shunday ekan uni qanday sevmaslik mumkin?

Maftunkor lahzalar qaysi yurtda bor,

Qaysi bir ōlkada qishda yoğmas qor.

Dōstim, qancha yurtlar ozodlikka zor.

Hur Vatanim mening -Ōzbekistonim.

Ōğloni- Alpomish, qizlari -Barchin.

Zulfiyasi elga nom taratdi chin.

She’rlarin ōqisam keladi avjim,

Hur Vatanim mening -Ōzbekistonim.

Mustaqil yurtim bor, bu mening baxtim,

Paxta, buğdoy, doni sharafim taxtim.

Bundan ortiq baxtni qaydan topardim?

Hur Vatanim mening -Ōzbekistonim.

Kunlari charoğon ,tunlari oydin,

Shildirab oqadi suvlari soydin.

Mehmonlar bahramand lazzatli choydin,

Hur Vatanim mening -Ōzbekistonim.

Dunyo maftun bōlgan boğ-bōstonim bor,

Har bir qadamimda gulistonim bor.

Minglab sayyohlari ta’rifiga boy,

Hur Vatan ochaver yanada chiroy!

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

”Ozod yurt qiziman” she’riy tōplam Isroilova Dilsora

“BUXORO” nashriyoti 2013